

2. Некрасов В.А., Некрасова В.В., Новиков В.М. Введение в теорию современного менеджмента: Учебное пособие. Ростов н/Д.: Изд-во «Эверест», 2011.

3. Барулин С.В., Ермакова Е.А., Степаненко В.В. Инновационный менеджмент: Учебное пособие. М.: Омега-Л. 2007.

4. Хотинская Г.И. Налоговый менеджмент и его эффективность // Финансовый менеджмент. 2002. № 2. С. 23.

## **BANK XIZMATLARINING RAQOBATBARDOSH BOZORINI SIMULYASIYA QILISH UCHUN BANK KREDITLARI BO‘YICHA MUVOZANATLI BOZOR STAVKALARINI SHAKLLANTIRISH YAGONA AXBOROT PLATFORMASINI YARATISH**

*Abdulazizova O‘g‘iloy*

*PhD, TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 16-yanvar kuni makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi va ushbu yig‘ilishda bank tizimi barqarorligini ta‘minlash, iqtisodiyotga kreditlar yo‘naltirish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. **Bozor mexanizmlari asosida kredit stavkalarini kamida 2-3 foizga tushirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.**

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investisiyalar tarkibini sifatli baholash asosida tizimli muammolarning mavjudligi mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitining buzilishiga olib keladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

**1-jadval**

### **Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investisiyalar tarkibi (jami foizda)**

	2000	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Korxonalar va aholining o‘z vositalari	39,1	57,5	52,5	56,2	54,4	47,3	42,0	29,3	40,8	38,1	40,8
Qabul qilingan mablag‘lar	60,9	42,5	47,5	43,8	45,6	52,7	58,0	70,7	59,2	61,9	59,2
<i>Shu jumladan:</i>											
Davlat byudjeti	29,2	12,2	5,2	4,2	4,3	4,8	4,5	9,0	6,8	8,8	7,8
Xorijiy investisiyalar	23,2	21,7	26,4	18,5	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,7	36,0
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	7,2	3,8	9,0	11,0	10,8	12,6	17,8	13,8	7,6	8,0	7,8

*Izoh: Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari bo‘yicha tuzilgan*

Mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan mablag‘lar ichida bank kreditlari kichik ulushni egallaydi (2000-yilda –7,2%, 2010-yil – 9%,2020-yil – 7,6%, 2021-yil – 8,0%, 2022-yil – 7,8%). Kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida shakllanishi uchun moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish zarurligini isbotlaydi.

Bank xizmatlarining raqobatbardosh bozorini simulyasiya qilish uchun va shuning asosida bank kreditlari bo‘yicha muvozanatli bozor stavkalarini shakllantirishni ta‘minlash vositasini ishlab chiqish maqsadida biz yagona axborot platformasini yaratish zarur deb hisoblaymiz. Ushbu platformaning asosiy maqsadi, bir tomondan, barcha tijorat banklaridan kredit resurslarini yetkazib berishning umumiy hajmi (*taklif*) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning majburiy mavjudligini ta‘minlashdan iborat bo‘lib, ikkinchi tomondan, iste‘molchilarning kredit resurslarga bo‘lgan *talabning* umumiy hajmi asosida kreditlar bo‘yicha muvozanatli foizlarni shakllantirishga ko‘maklashadi.



### 1-rasm. Kredit xizmatlari uchun raqobat bozorini simulyasiya qilish shartlari

*Izoh:* Muallif tomonidan tuzilgan

Hozirda Internetda mavjud platformalar ([www.pultop.uz](http://www.pultop.uz), [www.zanimaem.uz](http://www.zanimaem.uz) va boshqalar) uchta muhim kamchilikka ega:

*bank xizmatlarining raqobatbardosh bozorini taqlid qilish maqsadida talab va taklifning umumiy hajmi bo‘yicha ma‘lumotlarning yo‘qligi;*

*tijorat banklaridan ma‘lumotlarni so‘rash huquqining yo‘qligi, chunki sayt yaratuvchilari xususiy shaxslardir;*

*tijorat banklari ushbu platformalarga qay darajada ishonchli va dolzarb ma‘lumotlarni taqdim etishligi.*

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan [www.bankxizmatlari.uz](http://www.bankxizmatlari.uz) moliyaviy xizmatlar portalini tushirdi. Ammo bu platforma biz taklif qilayotgan platformani takrorlamaydi va bir qator muhim farqlovchi xususiyatlarga ega:

**Birinchi**dan, portalning maqsadi axborot xarakteriga ega bo‘lib, faqat tijorat banklari xizmatlarini solishtirish imkonini beradi. Biz taklif qilayotgan platforma esa - talab va taklif qonunlari ob‘yektiv bozor tamoyillari asosida ishlaydigan bozor.

**Ikkinchi**dan, shaxslarga qaratilgan portalning maqsadlilikligi. Biz taklif etayotgan platforma jismoniy va yuridik shaxslarga, xususan, iqtisodiyotning real sektori sub‘yektlariga xizmat qilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Bu loyihani amalga oshirishda raqobatbardosh bozorga taqlid qilish maqsadida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi platforma ishtirokchilari (tijorat banklari)ga o'z imkoniyat va resurslaridan kelib chiqqan holda yetkazib berish hajmi to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berish majburiyatini yuklashi zarur. Shuningdek, bu platformada bank xizmatlariga talabni (platformada so'rovlar shaklida) hisobga olish kerak, shundan so'ng bank xizmatlari uchun muvozanatli bozor narxi (foiz) shakllanadi.

Keyinchalik, platformani yaratish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalari sezilarli darajada kamayadi, ammo bu berilgan kreditlar miqdori oshishiga olib keladi. Bu tamoyilning natijasi o'laroq, kreditlashdan eng katta samarani kredit iste'molchilari oladi, ya'ni korxonalar, ularning rivojlanishi kelgusida ularga kredit olish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Усманов А. С. и др. *Цифровизация в имитации конкурентного рынка финансовых услуг //социально-экономическое и экологическое развитие приграничного региона: возможности и вызовы.* – 2022. – С. 211-214.

2. Абдулазизова Ў. *Проблемы формирования конкурентного рынка финансовых услуг Узбекистана //Iqtisodiyot va ta'lim.* – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 12-21.

## **AHOLI TOMORQALARIDAN FOYDALANISHNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI**

*Xakimov Zafar*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
“Moliya va statistika” kafedrası v/b, PhD*

Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligi keyingi yillarda bir muncha pasayib ketmoqda. Sababi, sohani rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada amalga oshirilmaslgi va e'tibordan chetda qolishi tomorqa yer egalari faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Aholi tomorqalarini rivojlantirish orqali real daromad miqdorini oshirish, aholini bandliligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi va ajaratiladigan mablag'lar miqdori mamlakatda yaratiladigan YAIM hajmiga bog'liq. Shunday ekan, YAIM qancha ko'proq yaratilsa, qishloq xo'jaligiga ajratiladigan mablag' miqdori shuncha oshib boraveradi.

Mamlakatda olib boriladigan pul-kredit siyosati aholini arzon va zaruriy mablag' bilan ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklari orqali beriladigan kreditlarning foiz stavkasining past yoki yuqoriligi, kreditlash mexanizmining qay darajada yo'lga qo'yilganligi tomorqa xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kredit foiz stavkasining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi